

# ERTAKLAR VODIYSI 3

ERTAKLAR
XOTIRAM XARITASI
QIZIQARLI OLAM
AQL QAYROG'I
O'ZBEK XALQ MAQOLLARI
QUVNOQ SAVOLLAR

UDK 94 (076)
KBK 22.3
3-78

Assalom alaykum mittivoylarim. Ishlaringiz yaxshimi? Siz bilan yana g'oyibona diydorlashib turganimdan qanchalar mamnun ekanligimni bilsangiz edi. O'ylaymanki, siz ham loyihamiz orqali men bilan do'stlashib oldingiz.

Loyihamizning ushbu sonida sizning e'tiboringizga yana bir necha qiziqarli ertaklarni havola etamiz. O'ylaymanki, ushbu ertaklarimiz sizga juda yoqadi va albatta ulardan o'zingizga kerakli xulosa chiqarib olasiz. Tengdoshlaringiz orasida o'z aql-zakovatingiz bilan ajralib turishni istasangiz, albatta bilimdon bo'lishga harakat qiling. Axir bilim inson ko'zgusi deb bejiz aytmaydilar-ku. Qani mening aziz do'stlarim, "ERTAKLAR VODIYSI" ning navbatdagi soniga marhamat!!!

UDK 94 (076)
KBK 22.3

*Loyiha muallifi va nashrga tayyorlovchi:*
**Nargiza Umrzoqova**

*Filologiya fanlari nomzodi*
**Abdumurod Tilavovning**
umumiy tahriri ostida

ISBN-978-9943-992-92-4

© "Adabiyot uchqunlari" nashriyoti, 2016.
© "Ma'rifat gulshani S.S." MCHJ

Respublika bolalar kutubxonasi
Inv. № 349246

# Birinchi bo'lim

## BIR BOR EKAN, BIR YO'Q EKAN...



### Devning bog'i

Bir zamonda bolalar o'ynab yuradigan juda go'zal bog' bo'lgan ekan. Rangorang gullar, mevali daraxtlar, kapalaklar, qushlar bu bog'da yashar ekanlar. Bolalar bu bog'da to'planar va quvonib xursandchilik qilishar ekan. Bir kuni bir dev kelibdi va bolalarning sevimli bog'ini egallab olibdi. "Qanday go'zal bog', bundan buyon bu meniki bo'ladi", – debdi. Kela turib bog'da o'ynayotgan bolalarni quvib yuboribdi. "Bu mening bog'im va bir on ham bu yerga kirishingizga ruxsat bermayman", – debdi. Bolalar qo'rqib ketib qolibdilar. Dev bog'ni katta devor bilan o'rabdi. Devorga: "Bu yerga kirgan bolalar jazolanadilar", – deb yozib qo'yibdi.

Bolalar juda xafa bo'libdilar. Nafaqat bolalar balki, gullar, daraxtlar va qushlar ham bolalar bo'lmagani uchun quvonchlarini yo'qotibdilar. Gullar so'libdi, qushlar kelmay qo'yibdi.

Daraxtlar barglarini to'kibdi va bir muddat meva bermabdi. Qish kelib qor yog'ibdi. Dev, bahor kelgunga qadar bog' avvalgi chiroyiga qaytadi deb o'ylabdi. Qorlar eribdi, gullar ochilibdi, daraxtlar meva berishni boshlabdi. Ammo devning bog'iga bahor kelmabdi. Qorlar erimabdi, gullar ochilmabdi, daraxtlar esa meva bermabdi.

Bir tong dev: "Nega mening bog'imga bahor kelmadi?" – deb baqiribdi. Qorlar orasida yashirinib yotgan bir gulning g'unchasi bosh ko'taribdi va: "Chunki sen xudbin devsan. Bolalarni bog'dan quvding. Holbuki bu yer ularning sevimli joyi edi", – debdi. Dev xatosini tushunibdi. Bog'ni o'ragan devorlarini yiqitibdi va u yerni tark etibdi. Bolalar yana bog'ga yig'ilibdilar. Birdaniga qorlar eribdi, gullar ochilibdi, qushlar shodlikdan uchib kela boshlabdilar.

Xudbin dev ketishi bilan ko'rimsiz bog'ning avvalgi go'zalligi qaytibdi.

Nafaqat insonlarga, balki barcha mavjudotlarga ham albatta mehr kerak ekanligiga yana bir bora amin bo'ldik. Mana ko'rdingizmi jajji do'stlarim, devning xudbinligi nima oqibatlarga olib keldi. Xatosini tushunib yetgan dev endi hech qachon bunday ish qilmasligiga umid qilib qolamiz. Siz ham doimo barchaga quvonch ulashishga intilib yashasangiz, hurmat va izzatga sazovor bo'lasiz.

## Savollarga javob bering:

1. Nima uchun ko'rkam bog' o'z go'zalligini yo'qotdi?
2. Dev qilgan xudbinlikni anglab yetishi uchun nima sabab bo'ldi?
3. Bolalar yana bog'ga qaytib kelganlaridan so'ng bog'da qanday o'zgarishlar yuz berdi?
4. Siz ham bog'ni, gullarni va qushlarni yaxshi ko'rasizmi? Ularni qanday parvarish qilasiz?

**Mehr temirni eritar, qahr toshni yorar.**

**Maqol**

# Aks-sado

Bir odam o'g'li bilan birgalikda tog'larda kezar ekan. Bir vaqt o'g'li otasidan uzoqlashib ketganini payqab qolibdi. Otasini yon-atrofdan izlab baqiribdi: "Ota..."

Bir ozdan so'ng tepaliklardan o'z ovozini eshitibdi: "Ota..."

Bola juda hayron qolibdi. "Sen kimsan?" – deb baqiribdi.

Aynan mana shu so'zlar yana o'ziga qaytibdi. "Sen kimsan?.."

Bola bir oz qo'rqibdi va "Bu yerga chiq, seni bir ko'ray" – debdi.

Yana ayni shu javob kelibdi: "Bu yerga chiq, seni bir ko'ray..."

Shu orada bolaning otasi yoniga kelibdi: "Ota, bu nima sinoat?" – deb so'rabdi bola, hayratlanib.

Otasi: "Diqqat bilan tingla", – debdi va "Seni sevaman" – deb baqiribdi.

"Seni sevaman" – degan javob kelibdi.

"Sen mo'jizasan" – debdi otasi.

Ovoz yana yaqinlashibdi: "Sen mo'jizasan..."

Otasi o'g'liga qarab: "Buni aks-sado deydilar bolajonim. Aks-sado hayot kabidir. Chunki hayot ham ishlarimizning aks-sadosidir. Aytgan va qilgan ishlar ayni holda senga yana qaytadi. Buni hech ham unutma", – debdi.

**Qaytar dunyo degan naql insonni doim o'ylab ish tutishga undaydi. Chindan ham bu dunyoda nimaiki qilsang o'zingga qaytib keladi-da. Bolaning otasi aks-sadoni qaytar dunyoga o'xshatib, farzandiga juda foydali nasihat berdi. Siz ham bu ertakdan biling – ki, insonga yaxshilik va yomonlik faqatgina qilgan ishlaridan kelib chiqqan holda berilar ekan.**

## Savollarga javob bering:

| | |
|---|---|
| 1 | Tog'-u toshlar orasidan kelgan sado bolani nima uchun o'ylantirib qo'ydi? |
| 2 | Ota farzandiga qanday nasihat qildi? |
| 3 | Nima uchun ota aks-sadoni qaytar dunyoga o'xshatdi? |
| 4 | Otaning farzandiga qilgan nasihatidan qanday xulosa chiqardingiz? |

**Bolam! Rahm qilganga doim rahm qilinadi. Kimki o'rnida tilini tiysa, salomat bo'ladi. Kim yaxshi gapirsa va yaxshi ishlar qilsa, albatta boy bo'ladi. Tiliga egalik qilmagan kimsa pushaymon bo'ladi.**

**Luqmoni Hakim**

**Har ish aylarda aval ehtiyot aylab**
**tafakkur qil,**
**Qo'lindan o'tsa vaqti, so'ngra sud (foyda)**
**etmas pushaymonlik.**

**Shavqiy**

# Eshagini yo'qotgan odam



Qadim zamonlarda juda parishonxotir bir o'tinchi bo'lgan ekan. Bir kun o'tin to'plash uchun o'rmonga yo'l olibdi. O'tin kesishni boshlabdi. O'yga sho'ng'ib ketganidan eshagini unutib qoldiribdi. Ishni tamomlab o'tinlarni eshakka yuklash vaqti yetib kelibdi. Ne ko'z bilan ko'rsin-ki eshagi yo'q emish. Atrofga boqibdi, baqiribdi, eshagini juda ko'p qidiribdi, ammo eshagi topilmabdi. O'tinlarini o'rmonda qoldirib o'zi uyga qaytibdi.

Ayoli uni piyoda kelayotganini ko'rib: "Eshagingiz qayerda qoldi afandim?" – deb so'rabdi.

O'tinchi: "So'ramang xonim, eshakni yo'qotdim. Ammo shunga ham shukur", – debdi.

Ayoli hayron bo'lib: "Eshakni yo'qotganingizga shukur deyapsizmi?" – deb so'rabdi.

O'tinchi: "Eshakni yo'qotganimga emas. Agar eshakni ustida men bo'lganimda-chi! Eshak bilan yo'qolmaganimga shukur deyapman", – debdi.

**Inson hamisha hushyor bo'lishi kerak. Shundagina eshagini yo'qotgan odam holiga tushmaydi. Bilsangiz bir narsaga erishish qiyin, uni yo'qotishdanda oson ish esa yo'q. Shu bois hushyorlikni qo'ldan boy bermang. Zero siz erishgan narsalaringiz hamisha sizga xizmat qilsin. Aziz do'stlarim, maslahatimga quloq tutgan holda hamisha ziyrak bo'ling. Shunda barchaning olqishiga sazovor bo'lasiz.**

## Savollarga javob bering:

1. Nima uchun o'tinchi eshagini yo'qotib qo'ydi?
2. Eshagidan ayrilgach qanday qiyinchiliklarga uchradi?
3. Rafiqasiga aytgan so'zlarini bir eslang, siz uning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?
4. O'tinchining holiga tushib qolmaslik uchun nimalar qilishimiz lozim ekan?

**O'zingga ehtiyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma.**

**Maqol**

# G'ilayning hiylasi



O'tgan zamonda bir ustaning g'ilay shogirdi bor ekan. Bir kun usta unga: "Omborxona tokchasining tag qavatida falon, shisha bor. Bor, uni olib, menga keltir!" – debdi.

G'ilay shogird omborxonaga ketibdi. Bir oz vaqt o'tgach, qo'llari bo'sh holda qaytib kelibdi va: "Usta tokchada bir emas, ikki shisha bor ekan. Qaysi birini keltiray?" – deb so'rabdi.

Usta: "U yerda ikkita emas bittagina shisha bor, uni olib kel!" – debdi.

Faqat shogird yana takror: " Bir emas ikki shisha bor. Qaysi birini istasangiz shuni keltiray", – debdi.

Usta "O'g'lim, sen g'ilay bo'lganing uchun idishni bir juft ko'ryapsan", – desa shogirdning dili og'riydi.

"Bor ikki shishadan birini sindirib, qolganini menga olib kel!"

Shogird borib shisha idishni yerga tashlabdi. So'ngra boshqa idishni olish uchun tokchaga qarabdi. Ammo ko'ribdiki boshqa shisha idish yo'q emish. Shunda g'ilay shogird tokchada bitta idish bo'lganini anglab yetibdi. Shundan so'ng hech ustozining so'zini ikki qilmabdi.

**! Ustoz otangdek ulug' deb bejiz aytmaydi ona xalqimiz. Ustozlarimiz bizning oq-qorani tanib olishimizda eng katta yordan beradidan shamchirog'imizdir. Shogirdining dilini og'ritib qo'ymaslik uchun o'ziga zarur bo'lgan shisha idishdan ham kechib yuborgan ustozga qarang, saboq berish uchun juda ma'qul yo'lni tanladi. G'ilay shogird esa o'ziga munosib xulosani chiqarib oldi. Jondek aziz ustozlaringizning har bir so'ziga siz ham e'tiborli bo'linng. Do'stlarim, shuni unutmangki, ustozlar hech qachon o'z shogirdlariga yomonlikni ravo ko'rmaydilar. Siz erishgan yutuqlar esa ular uchun o'zlariniki kabi qadrlidir.**

## Savollarga javob bering:

1. Nima uchun shogird shishani sindirdi?
2. Ustoz g'ilay shogirdiga qanday saboq berdi?
3. Shogird ustozning qilgan ishidan qanday xulosa chiqardi?
4. Siz ustozning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?
5. Sizning ham hayotingizda shunga o'xshash voqealar yuz berganmi?

**Shogird agar shayxul islom, agar qozidur,**
**Agar ustoz andin rozidur – Tangri rozidur.**

**Alisher Navoiy**

**Anglash lozimki, ota-ona insonning jismonan tug'ilishiga sababchi bo'lsalar, muallimlar ularning ruhiyatiga sabachidirlar. Muallimlar insonga ota-ona martabasidadir, ehtimol ziyod hamdir. Muallimga isyon bu ne'matga kufr keltirishdekdir.**

**Abdurahmon Toshkandiy**

# Ozod bo'lishni istagan to'ti

Qadim zamonda bir savdogarning juda go'zal to'tiqushi bo'lgan ekan. Bu to'ti qafas ichida yashash joniga tekkanidan bezor bo'libdi. Batamom o'zgarishni o'ylab, xayol surar ekan.

Bir kuni savdogar Hindistonga ketish uchun safar hozirligini ko'ra boshlabdi. To'tiqushdan: "Hindistondan nima olib kelishimni istaysan?" – deb so'rabdi.

To'ti: "U yerda ko'rgan to'tilaringizga meni holimni aytib bering! G'urbat qo'lida, qafas ichida yashaydigan bir to'tim bor. Sizga salom aytib yubordi deng. Meni unutmasinlar!" – deb sohibini kuzatibdi.

Savdogar Hindistonga yetib kelibdi. Ishlarini bitiribdi va o'lkasiga qaytibdi. Yo'lda bir qoyaning ustida turgan uch to'tini ko'ribdi va: "Mening ham bir to'tim bor. G'urbat qo'lida, qafas ichida yashaydigan. "Do'stlarim meni unutmasinlar!" – dedi va sizlarga salom aytib yubordi", – debdi. Buni

tushungan to'tilardan biri qoyadan yiqilib o'libdi. Savdogar juda hayron qolibdi. Uyga qaytgach to'ti qushi: "Birorta to'tiqush ko'rdingizmi, salomimni aytdingizmi?" – deb so'rabdi.

Savdogar: "Hech so'rama go'zal qushim. Uchta to'ti ko'rdim, so'zlaringni ularga yetkazdim. Shu zahoti oralaridan biri yerga yiqilib o'lib qoldi", – debdi. Buni eshitgan to'ti sohibining ko'z oldida titray boshlabdi va o'lib qolibdi... Savdogar ko'zlariga ishonmabdi. Juda g'amga botibdi. To'tiqushini qafasdan chiqarib bog'ga keltiribdi. Shunda to'ti jonlanib: "Bo'ldi tamom, bugundan boshlab ozod yashayman", – deb uchib ketibdi. Uchib bir shoxga qo'nibdi va savdogarga yuzlanibdi: "Hindistonda ko'rgan qushingiz bor-ku, o'sha o'lmadi. Menga xabar yo'lladi. Ozod bo'lishni istasang, o'lgandek ko'rin va ozod bo'l deyishni nazarda tutgan. U ham sog'-salomat, bu xabarni keltirgan sen ham omon bo'l. Endi ozodman"...



**Hatto jonivorlar ham ozod bo'lishni istashini ko'rdingizmi? Shunday ekan aziz do'stlarim, hamisha tinch, osoyishta zamonda yashayotganimizga shukur qilaylik. Ozodlikni qadriga yetaylik. Musaffo osmonimizga bir qarang. Undanda ortiq go'zallik yo'qdek bu olamda.**

**To'tiqush orzu qilgan erkinligiga erishgach uni qafasda ushlab turgan savdogarga qarata aytgan so'zlarini eslang. Ozodlik uchun hatto jonivorlar ham kurasha olishlari insonni hayratga soladi.**

## Savollarga javob bering:

1. Savdogar safarga ketayotganida to'tiqush unga qanday iltimos qildi?
2. Savdogar ko'rgan to'tiqushlar qafasdagi qushga qanday yordam berdilar?
3. Ozodlikka chiqqan qush sohibiga nima dedi?
4. Qushlarni qafasda saqlashning qanday salbiy oqibatlari bor?
5. Siz ham qafasda qush boqqanmisiz?
6. Uni ozodlikdagi qushlardan qanday farqini sezgansiz?

# Podshohning qarori



Qadim zamonlarda bir podshoh saroyiga yangi xizmatkorlar olibdi. Xizmatkorlikka da'vo qilayotgan nomzodlarning ikkitadan huzuriga kirishlarini istabdi. Ikki do'st podshohning huzuriga keltirilibdi. Bulardan biri juda ko'rkam husnga ega, tishlari dur kabi, yosh bir yigit emish. Ikkinchisi esa zaif va ko'rimsiz emish. Podshoh yoqimtoy xizmatkorni yoniga chaqiribdi va unga bir necha savollar beribdi. So'ngra ustidagi kiyimlarni almashtirish uchun boshqa xonaga olib chiqib ketishlarini aytibdi.

Xushbichim xizmatkor ichkarida bir xonaga olib kirilibdi. Podshoh zaif va ko'rimsiz bo'lgan da'vogarni yoniga chaqiribdi. "Sheriging qanday edi? U sen bilan qanday munosabatda edi?" – debdi.

Xizmatkor do'stining endi qutula olmasligini bilib achinibdi. Yana ham do'stini yaxshi so'zlar bilan eslabdi. U haqida yomon so'zlar aytmabdi.

Shunda podshoh uni ham ichkariga yo'llabdi. So'ng kelishgan odamni chaqiribdi va "Koshki xulq-atvoring ham yuzing kabi go'zal bo'lsa edi. Seni sherigingdan surushtirdim, yaxshi gaplar aytmadi. Sen uni qanchalik bilasan?" – deb so'rabdi. Buni eshitgan xushbichim xizmatkor juda g'azablanibdi. Do'stini yolg'on, bo'hton so'zlar bilan qoralabdi.

Shundan so'ng podshoh ikkisini ham huzuriga chaqiribdi. "Bu qul zaif va ko'rimsiz, ammo qalbi go'zal... to'g'ri so'zli va o'zini asli kabi tutadigan bo'lgani uchun saroyda qolishga to'la haqli", – debdi.

Ko'rkam xizmatkor esa, kelishgan bo'lsa ham yolg'on so'zlagani uchun saroyga olinmabdi.

**Yo asling kabi ko'rin, yo ko'ringaning kabi bo'l.**

**Jaloliddin Rumiy**

**Jajji bilag‘on do‘stlarim, mana ko‘rdingizmi rostgo‘ylik doim g‘alaba qozonadi. Kimki qalbi toza, ko‘ngli pok bo‘lsa, albatta, baxt qasrining to‘ridan joy oladi. Siz ham hamisha so‘zingiz bilan ko‘nglingizni bir tuting. Shunda barcha niyatlaringizga yeta olasiz. Jamiyatda ham rostgo‘yligingiz bois hurmat-ehtiromga sazovor bo‘lasiz. Yodingizdan chiqmasin, yaxshilik yerda qolmas!**

## Savollarga javob bering:

1. Nima uchun podshoh ikki do‘stni birma-bir savol-javob qildi?
2. Insonning qiymati tashqi ko‘rinishiga qarab baholanar ekanmi, yoki ichki go‘zalligigami?
3. Nima uchun xushbichim xizmatkor ishga qabul qilinmadi?
4. Insonga omad va baxt yor bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor berish lozim deb o‘ylaysiz?

**Do‘stingni kechir, kechirganingni eslama va eslatma.**

**Hikmat**



# Tantiq shahzoda

Bir zamonlar tantiq bir shahzoda yashagan ekan. Qirolning yolg'iz farzandi bo'lgani uchun juda erkatoy, qaysar bo'lib ulg'ayibdi. Shahzoda yoshligidanoq barchaga o'z hukmini o'tkazishga odatlangan ekan. Ko'ngilxushlik, xursandchilikni yoqtirar ekan.

Unga saboq bergan ustozlarini tinglamas, kattalarning nasihatlariga quloq osmas emish. Bir kuni qirol olamdan o'tibdi. Saroydagi barcha a'yonlar va xizmatkorlar qirol vafot etgani uchun endi shahzoda taxtga o'tirishini kutishibdi. Chora topolmay shahzodani qirol o'rniga taxt sohibi etib e'lon qilibdilar...

Yangi qirol bir kuni ovga chiqibdi. O'rmonda juda go'zal oq kiyikni ko'rib qolibdi. Uni ta'qib qila boshlabdi. Kiyikni bir g'or ichiga kirib ketganini ko'rib qolibdi. U ham g'orning ichiga kiribdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki bu g'or devlarning uyi ekan. Devlar oq kiyik va yosh qirolni ushlab olibdilar.

Yosh qirol: "Men qirolman. Darhol meni ozod qilinglar!" – deb aytishni istabdi, ammo qo'rquvdan bir og'iz so'z ham aytolmabdi. Dag'-dag' titrab: "Yalinaman, meni qo'yib yuboring", – deb alahsiragudek turaveribdi. Devlar uning qo'rqoqligidan kulibdilar. " Bu g'orga jur'at etib kirgan kishi jasoratini isbotlashi lozim. Yo'qsa, bizga yemish bo'ladi", – debdilar. Yosh qirol yana qaysarlik qilibdi. O'zini qutqarish uchun hech bir ish qila olmabdi. Qo'rquv ichida titrab faqat yig'lar emish. Devlar: "Hech qachon bunday qo'rqoq odam ko'rmagan edik. Na jasorati, na qudrati bor. Buni o'ldirishga ham loyiq topmaymiz", – debdilar va yosh qirolni g'ordan tashqariga uloqtirib yuboribdilar.

Yosh qirol devlar qo'lidan qutulibdi. Ammo qirol uchun xos bo'lmagan darajada qo'rqoq va injiq ekanligini anglab yetibdi. Boshidan o'tkazganlari unga katta saboq bo'libdi. Shu kundan qirolga munosib ish yurita boshlabdi.

**Boshiga tushgan tabib. Axir inson xatolarini tushunib yetishi uchun albatta o'zini yengishi lozim. Aks holda hech kim unga saboq bera olmaydi. Hayotning o'zi eng oliy muallimdir.**

**Yosh qirol ham boshiga ish tushgandan so'ng xatolarini anglab oldi. Qirol bo'lish uchun ancha o'zini tarbiya qilishi lozimligini anglab, yaxshi tomonga o'zgardi. Yaxshilik doim g'alaba qozonadi.**

**Siz ham shuni yodda tuting-ki, do'stlik, yaxshilik, oqko'ngillik, sofdillik, rostgo'ylik, insonparvarlik va vatanparvarlik kabi hislarni qalbingizga yor aylasangiz hamisha omad va baxt sizning hamrohingiz bo'ladi.**

## Savollarga javob bering:

1. Shahzoda nima uchun tantiq, erkatoy, o'zini aytganidan qolmas bo'lib qolgan?
2. Unga hayot qanday saboq berdi?
3. Xatosini tushungan shahzoda qanday xulosa chiqardi?
4. Insonga ko'proq qanday insoniy fazilatlar yordam berar ekan?

# Ikkinchi bo'lim

## Xotiram xaritasi



Bilim, saboq bo'lsa qancha,
Bizga madad bo'lar shuncha.
Mustahkamlash lozimdir,
Qancha bilsak, shuncha ozdir.

# Devning bog'i



Ertak qahramonlari:

Ertakda uchragan insoniy fazilatlar:

Ertakning qisqacha mazmuni:

## Aks-sado

Ertak qahramonlari:

Ertakda uchragan insoniy fazilatlar:

Ertakning qisqacha mazmuni:

# Eshagini yo'qot gan odam



Ertak qahramonlari:

Ertakda uchragan insoniy fazilatlar:

Ertakning qisqacha mazmuni:

# G'ilayning hiylasi



Ertak qahramonlari:

Ertakda uchragan insoniy fazilatlar:

Ertakning qisqacha mazmuni:

# Tantiq shahzoda



Ertak qahramonlari:

Ertakda uchragan insoniy fazilatlar:

Ertakning qisqacha mazmuni:

**Krossvordga qarang,**
**Xotirangizni sinang.**



1. O'ylamasdan ish tutib,
Ustozini qiynagan.

2. Tog'-u toshdan keladi,
So'zingni qaytaradi.




5. Ozod bo'lish istadi,
Niyatiga erishdi.



3. Badjahl edi, bog'li
So'ldi, hayratda qoldi.

4. Qarorni qabul qilar,
Ikki do'stni pinhon sinar.

E'tiborni jamlangiz,
Diqqatingiz oshiring.
Chalkashtirmani topib,
Bo'shliqlarni to'ldiring.





Devning bog'i

Aks-sado

Eshagini yo'qotgan odam

G'ilayning hiylasi

Ozod bo'lishni istagan to'ti

Podshohning qarori

Tantiq shahzoda

Dev

G'ilay

Podshoh

Eshak

Gullar

Qirol

Uchta to'tiqush

Bolalar

O'tinchining ayoli

Ota

To'tiqush

Bola

Oqko'ngil inson

Qushlar

Ikki do'st

O'tinchi

Savdogar

# Uchinci bo'lim

## QIZIQARLI OLAM

Aziz do'stlarim! Siz bilan avvalgi sonimizda ekologiyaning asosi bo'lgan tabiat va uning sir-sinoatlari, quyosh va oy nurlari xususida gaplashgan edik. Bugun esa Quyosh tizimi haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Merkuriy, Venera, Yer,
Mars, Yupiter, Saturn,
Uran va Neptun.
Tizilishib ketma-ket,
Aylanishar tinmayin.
Harakatda doimiy,
Charchoq nima bilmayin.
Quyoshning atrofida,
Manzil hamda makoni.
Quyosh tizimida ularning,
Bordir yulduzlar koni.

Bundan tashqari biling,
So'zlarim quloqqa iling.
Pluton, Sedna va Serera,
Deb atalmish sayyora,
Mittivoylar ham bordir,
Mehnat uchun tayyordir.

Boboquyosh mehribon,
Bariga mehr berar.
Ularning yumushini,
Rag'batlantirib turar.

Hayot qiziq va jo'shqin,
Quyoshning tizimida.
Yana ming-ming zarralar,
Mangu Quyosh izmida.
Parvonadir kometalar,
Hamda mitti meteorlar,
Jam bo'lishib birma-bir,
Yumushga biz tayyor der.

Quyosh bobo shunchalar,
Katta va salobatli.
Quyosh tizimi massasini
Tashkil etar 99,9 foizini.

Yam-yashil go'zal makon,
Hayot chashmasiga kon.
Boshida gullar olam,
Unutma buni bolam.





Bizning ona Yerimiz,
Quyosh tizimining a'zosi.
Hamda go'zal, erkasi,
Hayotmakonligi ila
Hammadan qadrlisi.



Mana shunday azizlarim,
Mening bilarjonlarim.
Quyosh tizimini biz,
Bilib oldik biroz.

Yerning ham bordir joni,
Moviy osmon hamrohi.
Quyoshdayin boy va saxiy,
Bordir azal mehriboni.

Sizning bilimingizni,
Boyishini istayman.
Shu yo'lda mehnat qilib,
Yangiliklar izlayman.
Bilag'on do'stim aytgan,
Deb xursand bo'lsangiz,
Sevinaman men ham chin,
So'zlarimga ishoning.

Maqsadimni bilasiz,
So'zim nazarga ilasiz.
Qancha ko'p o'qisangiz,
Meni xursand qilasiz.
Katta bo'lib, ulg'ayib,
Orzularga erishasiz.
Shunda meni yodga olib,
Xursand bo'lib qolasiz.



Sizni yaxshi ko'raman,
Doimo ardoqlayman.
Mening jajji do'stlarim,
Mehrga to'la ko'zlarim.

# Qiziqarli olam

Kishilarda umuminsoniy qadriyatlarni yaratadigan dunyoqarashni shakllantirishda o'zining ulkan hissasini qo'shayotgan ilmi nujum, bizga ota-bobolarimizdan meros fan hisoblanadi. Bu yurtimiz yoshlari oldiga bunday durdona merosni avaylab-asrash va uni ko'paytirishdek ulug' ishlarga bel bog'lab kirishish vazifalarini qo'yadi.

O'zbekistonning rivojlanayotgan astronomiya fani, yaqin kelajakda sizdek iste'dodli yoshlar hisobiga iqtidorli astronom- olimlar safini to'ldiradi va ular erishgan yutuqlari bilan ajdod allomalarimiz ruhini shod etadilar, degan umiddaman.

O'ylaymanki, sizning orangizda ham astronomiya faniga qiziqishi katta bilimdonlar topiladi. Bu qiziqishlaringiz sizni astronomik olimlar safidan faxrli o'rinlardan birini egallashingiz sari chorlaydi. Ushbu yo'lda koinot sirlaridan voqif bo'lishda omad doimo hamrohingiz bo'lishini istab qolaman!



# To'rtinchi bo'lim

ABCDEFG

## Ingliz tilini o'rganamiz

Aziz do'stlarim, keling endi ingliz tilidan avvalgi sonimizda olgan saboqlaringizni sinab ko'ramiz.

Qancha ilm olsangiz shuncha kam. Ilm inson ko'zgusi. Shunday ekan ,izlanishdan sira ham tolmang. Eng qiziqarli va foydali ilm bu – o'zga tillarni o'rganish sanaladi. Siz ham biz bilan birgalikda ingliz tilini o'rganib, bebaho ilmlardan biriga ega bo'ling.

Qiziqishlar bir olam,  
Asta o'rganar odam.  
Tezkor, zukko bo'lsangiz,  
Sizni tark etadi g'am!

**Kishilik olmoshlari** shakllariga ta'rif bering va misollar asosida fikringizni boyiting.

## Ushbu rasmlarning tagiga tegishli kishilik olmoshlarini qo'yib yozing



1\.............




2\.............



3\.............



4\.............



5\.............



6\.............



7\.............



8\.............

| | |
|---|---|
| **I** – men<br>**You** – siz (sen)<br>**He** – u (o'gil bolalar uchun)<br>**She** – u (qiz bolalar uchun)<br>**It** – u (narsa-buyumlar uchun) | **We** – biz<br>**You** – siz<br>**They** – ular |

"To be" fe'li deganda nimani tushundingiz?

"To be" fe'lining shakllari xususida so'z yuriting.

"To be" fe'lining kerakli shaklini tanlab yozing.



1. It is a shark.



2. They ..... dolphins



3. It ..... a bicycle



4. They ..... oranges



5. They ..... friends.



6. It ..... a bus.

## Yangi mavzu:
## Bu yerda ko'rsatish olmoshi
## "There is", "there are"




Ingliz tilidan o'zbek tiliga There is "bu yerda" deb tarjima qilinadi. "There is" ning ko'plik shakli There are .

There is birlikdagi narsalar uchun ishlatilib, bu yerdagi narsa bitta ekanini bildiradi. Masalan: There is an apple – bu yerda bitta olma bor.

There are ko'plikdagi narsalar uchun ishlatilib, bu yerdagi narsa bitta emas, bir nechta ekanligini bildiradi. Hamda "Bor, mavjud, turibdi", degan ma'nolarni anglatadi.

Bu yerda ko'rsatish olmoshi

| Birlikdagi shakli | Ko'plikdagi shakli |
| --- | --- |
| There is | There are |

Bu yerda ko'rsatish olmoshining bo'lishsiz shakli "not" inkor yuklamasi orqali yasaladi.

| | |
| --- | --- |
| There is not.<br>Qisqa shakli<br>-There isn't | There are not.<br>Qisqa shakli<br>- There aren't |

So'roq shakli "to be" fe'lining oldiga is/are qo'shimchasini olib o'tish orqali yasaladi.

| | |
| --- | --- |
| Is there..........? | Are there..........? |

Kerakli o'rinlarga there is va there are olmoshlaridan mosini qo'yib yozing.



........There is............... a theacher in the classroom.

1. ................................a blackboard in the classroom.

2. ................................ five books in the classroom.

3. ................................ three desks in the classroom.

4. ................................five boys in the classroom.

5. ................................a chair in the classroom.

6. ................................two windows in the classroom.

Siz ham sinf xonangiz haqida 6 ta ma'lumot yozing, va albatta, har bir gapda "There is" va "There are" olmoshlaridan mosini qo'llang.

.................................................................................

.................................................................................

.................................................................................

.................................................................................

.................................................................................

.................................................................................

## Beshinchi bo'lim

### Aql qayrog'i

Quyidagi rasmlarga,
Mehr bilan boqing.
O'zingizni sinab ko'rib,
Sh'eriy topishmoq yozing.

1. ..............................
2. ..............................
3. ..............................
4. ..............................



h a n d



t r e e

1. ..............................
2. ..............................
3. ..............................
4. ..............................

1. ..............................
2. ..............................
3. ..............................
4. ..............................



b a l l

1. ....................................

2. ....................................

3. ....................................

4. ....................................

banana



aeroplane



1. ....................................

2. ....................................

3. ....................................

4. ....................................

1. ....................................

2. ....................................

3. ....................................

4. ....................................



egg

cat



1. ....................................

2. ....................................

3. ....................................

4. ....................................

1. ....................................

2. ....................................

3. ....................................

4. ....................................

# O'zbek xalq maqollarini izohlang!!!

Azob ko'rmay, rohat yo'q.

Azobga bardosh kerak,
Hamisha yo'ldosh kerak.

Asl boylik — qanoat.

Bardoshliga yog'lik osh,
Sabrsizga osh ham tosh.

Bir achchiqning bir chuchugi bor.

Yemoqning qusmog'i bor.

Yengil oyoq uzoqqa qo'shar,
Yengil bosh tuzoqqa tushar.

Bekor o'tirguncha, bekor ishla.

Bekorchidan el bezor,
So'zidan ko'ngil ozar.

# Quvnoq savollar



**Qiziqarli savollar,**
**E'tiboringizda qarang.**
**Zehnimizni charxlaymiz,**
**Javob topib rang-barang.**

- Osmon bilan Yerning orasida nima bor?
- Nima uchun shamol har tomonga esadi?
- Yulduzlarning shakli qanday?
- Ko'ngil bilan dilning farqi nimada?
- Momoqaldiroq qanday hosil bo'ladi?
- Jonivorlarning ham o'z ona tilisi bo'ladimi?
- Tuyg'u nima?
- Insonning ko'zgusi qaysi a'zosi?
- Odam uxlaganda nima sababdan tush ko'radi?
- Nima uchun qushlar insonlarga do'st sanaladi?



## Antonimlar qatorini to'ldiring.

Antonim so'ziga izoh bering.

| | |
|---|---|
| ................ – pishgan | ................ – qimmat |
| ................ –o'tmas | ................ –keyin |
| ................ –yomon | ................ –ongsiz |
| ................ –to'q | ................ –yuqa |
| ................ – uzoq | ................ –aytma |
| ................ – ber | ................ –go'zal |
| ................ – toza | ................ –achchiq |
| ................ –urush | ................ –baland |
| ................ – qahr | ................ –o'lik |
| ................ –uka | ................ –baxtsizlik |
| ................ – singil | ................ –katta |
| ................ –tog'a | ................ –yaqin |
| ................ – iflos | ................ –suyuq |

# Hayot saboqlari

Bilim olish emas oson,
Lekin siz ilmga chanqoq.
Izlanishdan tolmangiz,
Sira horib qolmangiz.

Yaningda turgan kitobni albatta o'qib chiq, shunda yana bir xazinani qo'lga kiritgan bo'lasan.

Do'stni ranjitma, seni ranjitsa bu voqeani bo'lmagan deb hisobla. Shunda bir kun kelib do'sting xatosini anglab yetganida yuzing yorug' bo'ladi.

Tilni tiygan inson hamisha g'olib. Ammo andishaga qo'rqoq deb nom qo'yilishining oldini olgan yaxshiroq.

Ota-onadan qarzdorsan. Ularning qarzi qisman bo'lsa ham to'lanadi. Ammo ustozdan olgan ilmning qarzini umrbod to'lay olmasligingni unutma.

Hayotda yaxshilik yo'lida shamdek yonib yasha. Zero sham sochgan yog'du so'nib bo'lsa ham tarixiy xotiroga muhrlanishga ulguradi.

Inson qoldirgan iz avlodlarining ham taqdirini belgilashini unutma.

Aql charchasa uyqudan quvvat oladi. Ammo har narsaning chegarasi borligini unutma. Uyquga ruju qo'ysang, aqlingni halokatga yuz tutishiga sababchi bo'lib qolasan.

Seni tushunmagan inson bilan suhbat qurish, vaqting qotiliga aylanish demakdir.

Dangasalik insonni halokat sari olib boruvchi eng qisqa yo'ldir.

Inson o'z nafsini yengishi uchun qanoatdan yordam so'rashi joiz.

Chin do'sting kimligini bilish uchun o'zingni faqir qilib ko'rsat.

Yana nasib etib diydor,
Uchrashamiz siz bilan.
Yangi bilimlar kuting,
Qoling do'stlar biz bilan.
Sog'inchlarim cheki yo'q,
Vidolashmoq istamas ko'ngil.
Ammo sira iloj yo'q,
Vaqt erur oily hakam.
Ko'rishguncha bilimdonlar,
Sizni ko'ray sog', omon!

Inson hayotining yuragi umid. Undan ayrilgan inson hayotidan ayrilib qolishini unutmasin.

Qalbini haqiqiy insoniy hislar bilan boyita olgan odam bu dunyodagi eng badavlat insonga aylanadi.

Nafs uchun oliy davo bu achchiq so'zdir. Shu bois senga achchiq gapirganlarni albatta tingla. Shunda nafs senga yengiladi.

Senga chin dildan do'stlikni taklif qilgan insonning taklifini rad etishga shoshilma. Aks holda birovning omonatiga xiyonat qilganlar qatoriga kirib qolasan.

Rost gapirish va ezgulikka xizmat qilish saodatga erishishdir.

Zolimlik insonni sarxush qiladi. Shunday ekan, zolimlikka erk berma. Zero sen hamisha hushyor yashamog'ing lozim.

Shubha inson qalbining qotilidir.

Sendan yordam so'ragan insonga garchi yordam bera olmasang ham ko'ngliga tasalli ber. Unga bergan eng katta yordaming shu sanaladi.

Inson hayotining yuragi umid. Undan ayrilgan inson hayotidan ayrilib qolishini unutmasin.